

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



**AKADEMIK LITSEYLARDA GEOGRAFIYA FANIDAN  
NAMUNAVIY O'QUV DASTURI  
(Umumta'lif fanlar)**

**TOSHKENT – 2020**

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2020-yil 14-avgustdagi № 3-son majlis bayoni bilan ma’qullangan hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchilar:**

1. Nazaraliyeva Esongul Yangiboyena - Respublika Ta’lim markazi geografiya fani metodisti.
2. Avezov Muxriddin Maqsud o‘g‘li - Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 278-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining geografiya fani o‘qituvchisi.
3. Xodjayeva Muhabbat - “Tabiiy va aniq fanlar”ga ixtisoslashtirilgan S.H.Sirojiddinov nomidagi respublika akademik litsey geografiya fani o‘qituvchisi

## KIRISH

Hozirgi ishlab chiqarish, texnika va tabiatdan foydalanish jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik, geosiyosiy sharoit tadrijiy ravishda o‘zgarib borayotgan vaqtida maktablarda geografiya fanini mazmun jihatdan yangicha o‘qitish zamon talabidir.

Geografiya ta’limida o‘rganiladigan tabiiy, ijtimoiy hodisalar va tushunchalar, qonuniyatlarini o‘quvchilarga tushunarli holda umumiy o‘rtalim maktablari darsliklarida sodda va aniq bayon etish, bunda asosiy e’tiborni o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini va o‘quvchilarning bilim olish va o‘quv materialini tushunish hamda puxta va mukammal o‘zlashtirish imkoniyatiga e’tibor qaratishdan iborat.

**Geografiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy maqsadi:** o‘quvchilarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, jahon va O‘zbekistonning tabiiy sharoiti, aholisi va iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o‘zaro aloqadorligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishni ratsional tashkil etish, global va regional muammolar haqida tushunchalarni shakllantirish, tahliliy fikrlashga o‘rgatish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo’llash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

### **Geografiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy vazifalari:**

Yer sayyorasi, dunyoning yirik mintqa va davlatlari, O‘zbekiston Respublikasi tabiatni, aholisi hamda iqtisodiyoti haqidagi tizimli va majmuali bilimlarni tarkib toptirish;

geografik makonning global va regional miqyosidagi hududiy tabaqalanish qonuniyatlarini tushuntirish;

joy nomlari va geografik atamalarni to‘g‘ri qo’llash ko‘nikmalarini shakllantirish;

hozirgi zamon jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarining mohiyati va xususiyatlari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish, yosh avlodning ekologik madaniyatini, milliy boyliklarga nisbatan tejamkorlik munosabatini o‘stirish;

turli axborot manbalaridan foydalangan holda, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt va hodisalarni tavsiflash, geografik xaritalar, statistik va grafik ma’lumotlar bilan ishlashning amaliy ko‘nikmalarini tarkib toptirish;

o‘quvchilarni Vatanga mahabbat, milliy iftihor, fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalash.

O‘quv dasturi jami 36 soatga mo‘ljallangan bo‘lib birinchi kurs birinchi smestrda 36 soat o‘qitiladi. Shundan 34 soat nazariy va 2 soat amaliy mashg‘ulot uchun mo‘ljallangan.

Shuningdek, o‘qituvchi tomonidan fan- texnika yangiliklari, innovatsion ta’lim vositalarini inobatga olgan holda mavzularga ajratilgan soat hajmini 10% gacha o‘zgartirish mumkin.

## **GEOGRAFIYA (36 soat)**

### **O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:**

Yer yuzi tabiatiga fazoviy (tashqi) va sayyoraviy (ichki) omillarning ta’sirini tahlil qiladi;

geografik qobiqning asosiy qonuniyatlari - bir butunlik, modda va energiya almashinushi, ritmiklik, zonallik, azonallik, balandlik mintaqalanishini biladi;

muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning turlarini farqlaydi va o‘zaro taqqoslaysidi;

dunyoda kechayotgan zamonaviy demografik jarayonlar, urbanizatsiya (shaharlashuv) va xalqaro migratsiyasining mohiyatini tahlil qiladi;

dunyoning geosiyosiy tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni tahlil qiladi; global muammolar - tinchlikni saqlash, rivojlanayotgan mamlakatlarning qoloqligi, energetika, oziq-ovqat muammolarining mohiyatini biladi;

Markaziy Osiyo va O‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rniga baho beradi, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va geoekologik vaziyatini tahlil qiladi;

Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi yagona tabiiy muhit, transchegaraviy ekologik muammolar mohiyatini misollar bilan izohlaydi.

dunyoning tabiiy va geosiyosiy mintaqalarning nomlarini izohlay oladi, bir-biriga yaqin geografik nomlarning o‘zaro farqini biladi;

statistik ma’lumotlardan foydalanib, jadval va diagrammalarni tuzadi va ularni tahlil qiladi.

### **1-BOB: Kirish (2 soat)**

#### **Geografiya fanlari tizimi haqida tushuncha**

Geografiya fanlarining o‘rganish obyekti va predmeti. Geografiyaning tarmoqlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi. Geografiyaning ilmiy-nazariy ahamiyati. Tadqiqot usullari.

#### **Geografiya fanining tarixi va hozirgi davrdagi rivojlanishi**

Geografik bilimlar rivojlanishining qisqacha tarixi, uning yirik davrlarga bo‘linishi. Qadimgi geografiya. O‘rta asrlardagi geografik izlanishlar, O‘rta Osiyolik geograf-allomalar. Buyuk geografik kashfiyotlar. XIX asr va XX asrning 1-yarmida geografiyaning rivojlanishi. Hozirgi zamon geografiya fani haqida.

### **2-BOB: Yer tabiatini rivojlanishining fazoviy omillari**

#### **Yer yuzi tabiatini rivojlanishining fazoviy omillari.**

Yerning koinotdagi o‘rni. Quyosh, sayyoralar va Oyning Yer tabiatiga ta’siri. Yerning shakli, o‘lchamlari, harakatlari yer yuzi tabiatining shakllanishidagi ahamiyati.

#### **Yerning ichki tuzilishi va tektonik jarayonlar.**

Yerning qobiqli tuzilganligi. Litosfera va uning tektonik tuzilishi. Yer yuzida seysmik hodisalar, zilzila va vulqonlarning geografik tarqalishi va uning sabablari. Seysmik shkala. Zilzila vaqtida o‘zini to‘g‘ri tutish qoidalari.

## **Yer yuzi tabiatining rivojlanish tarixi.**

Geoxronologik jadval va uning bosqichlari. Eon, era, davrlar, ularni ajratish mezonlari. Era va davrlarga qisqacha izoh. Tog‘ burmalanishi bosqichlari.

## **Geografik qobiqning umumiyligi qonuniyatlar.**

Geografik qobiqning mohiyati. Uning tuzilishi, o‘lchamlari, chegaralari. Geografik qobiqning muhim umumiyligi xususiyatlari. Tabiat komponentlari va geografik qobiqning bir butunligi, tabiat komplekslari. Geografik qobiqda modda va energiya almashinuvi va aylanma harakati. Geografik qobiqdagi jarayonlarning ritmikligi.

## **Geografik qobiqning kenglik zonalligi va sektorligi.**

Kenglik zonallikning mohiyati, uning kelib chiqish omillari. Quruqlikda sektorlik qonuniyati va uning sabablari. Tabiat zonalari, ularning geografik o‘rin va iqlim sharoitiga bog‘liqligi. Geografik zonallikning turli tabiat komponentlariga ta’siri. Geografik zonallikning aholi joylanishi va xo‘jalik faoliyatiga ta’siri.

## **Balandlik mintaqalanishi qonuniyati.**

Tog‘larda tabiiy sharoitning balandlik bo‘ylab o‘zgarib borishi. Balandlik mintaqalar soni, tarkibi va chegaralarining tog‘larning geografik o‘rni, balandligi, ekspozitsiyasiga bog‘liqligi. Balandlik mintaqalanishi geografik zonallik bilan bog‘liqligi. Qor chizig‘i.

## **Geotizimlar va ularning pog‘onasimonligi.**

Geotizim tushunchasi. Geotizimlarning xususiyatlari. Geotizimlarning sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy ko‘lami. Landshaft kichik geotizim sifatida. Joy, Urochishe. Fatsiya.

## **Amaliy mashg‘ulot**

Yerning va litosferaning ichki tuzilishini chizmada aks ettirish. Balandlik mintaqalashi natijasida iqlim elementlarida bo‘ladigan o‘zgarishlar, xususan, balandlikka ko‘tarilgan sari havo harorati va bosimining pasayishiga doir amaliy topshiriq va masalalar ishlash.

## **3-BOB: Jamiyat va tabiat (2 soat)**

### **Jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar**

Geografik muhit, tabiiy muhit, texnogen muhit, ijtimoiy muhit tushunchalari, ularning atrof muhit kategoriyasida uyg‘unlashuvi. Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi: ibridoiy jamoa davri, dehqonchilik inqilobi davri, sanoat inqilobi davri, fan-texnika inqilobi davri, ekologik munosabat davri.

### **Antropogen landshaftlar**

Inson xo‘jalik faoliyati ta’sirida geotizimlarning o‘zgarishi. Antropogen landshaftlar, ularning turlari. Madaniy va buzilgan landshaftlar. Geotextizimlar.

## **4-BOB: Amaliy geografik tadqiqotlar (4 soat)**

### **Tabiatni muhofaza qilishning geografik asoslari**

Tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilish tushunchalari, ularning o‘zaro bog‘liqligi. Tabiatni muhofaza qilishning geografik tamoyillari. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va ularning asosiy turlari: qo‘riqxona, milliy bog‘, buyurtmaxona, biosfera rezervati, tabiat yodgorligi.

### **Tabiiy-geografik jarayonlar.**

Tabiiy geografik jarayonlar haqida tushuncha. Tabiiy omillar ta’sirida sodir bo‘ladigan jarayonlar. Nurash. Sel. Eroziya. Abraziya. Surilma. Karst.

### **Geografik baholash.**

Geografik baholash usullari. Yer resurslarini baholash. Iqlimiylarini baholash. Rekreatsiya resurslarini baholash.

### **Geografik progozo.**

Geografik progozo haqida tushuncha. Progozo usullari. Sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy geografik progozlar. O‘zbekiston geotizimlarining o‘zgarishini prognozlash.

## **5-BOB: Dunyo aholisi (6 soat)**

### **Dunyo aholisi va zamonaliv demografik vaziyat.**

Dunyo aholisi va uning dinamikasi. Demografik o‘tish kontseptsiysi, demografik portlash. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi demografik vaziyat, uning omillari va oqibatlari. Demografik siyosat.

### **Urbanizatsiya jarayonlarining global va regional jihatlari.**

Urbanizatsiya jarayoni va uning omillari. Shaharlarning tarixiy ildizlari va rivojlanishining bosqichlari. Dunyoning yirik mintaqalari orasida shaharlashuv darajasidagi farqlar. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda urbanizatsyaning o‘ziga xos xususiyatlari. Global shaharlar haqida tushuncha. Shaharlashuv muammolari.

**Xalqaro migratsiya jarayonlari va muammolari.** Aholi migratsiyasi va uning turlari. Xalqaro aholi migratsiyasining xozirgi zamon geografiyasi. Xalqaro migratsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyati.

### **Amaliy mashg’ulot**

Aholi zichligi, tug‘ilish va o‘lim, tabiiy ko‘payish kabi demografik ko‘rsatkichlarni aniqlashga doir masalalar yechish. Hududlarning urbanizatsiyalashuvi va urbanizatsiya darajasini aniqlash. Dunyoning yirik megalopolislari jadvalini tuzish.

## **6-BOB: Dunyoning geosiyosiy manzarasi va global muammolar (2 soat)**

### **Dunyoning geosiyosiy tizimi va uning shakllanishi.**

“Geosiyosat” tushunchasining mohiyati va mazmuni. Geosiyosat ob’ekti va predmeti. Geosiyosatning asosiy kategoriyalari. Davlatlarning o‘zaro geosiyosiy munosabatlari haqida. Dunyo geosiyosiy tizimining shakllanish bosqichlari: Vestfal davri, Vena davri, Versal davri, Potsdam davri va Belovej davri.

### **Jahondagi zamonaviy geosiyosiy vaziyat. Davlatlarning integratsion uyushmalari**

Dunyoning yetakchi geosiyosiy markazlari. G‘arbiy va Sharqiy Yevropadagi geosiyosiy jarayonlar. Geosiyosiy munosabatlarda AQSh ning tutgan o‘rni va mavqeい. Rossiyaning geosiyosiy manfaatlari. Xitoyning geostrategik siyosati. Yaqin Sharq davlatlarida geosiyosiy vaziyat. Ko‘p qutubli dunyo shakllanishi va rivojlanishi istiqbollari. Davlatlarning integratsion uyushmalari. Davlatlarning integratsion uyushmalarning maqsadlari va shakllari. Yevropa Ittifoqi. Shimoliy Amerika davlatlarining erkin savdo uyushmasi (NAFTA). Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi. Shanxay hamkorlik tashkiloti.

## **7-BOB: Yevropa va Amerika subregionlari (4 soat)**

### **Yevropa subregionlari.**

Yevropaning geografik o‘rni va siyosiy xaritasi. Yevropa 4ta yirik subregionalarga bo‘linishi. Shimoliy Yevropa. Skandinaviya va Boltiq davlatlari. G‘arbiy Yevropa davlatlari. Janubiy Yevropa. O‘rta Dengizbo‘yi mamlakatlari. Subregiondagi mitti davlatlar. Sharqiy Yevropa mamlakatlarining umumiy tarixiy-geografik xususiyatlari. Bolqon mamlakatlari.

### **Lotin Amerikasi.**

Lotin Amerikasining geografik o‘rni va siyosiy xaritasi. Tabiiy sharoiti va resurslari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Aholisi, demografik jarayonlari, irqiy, etnik va diniy tarkibi. Aholi joylanishi. Lotin Amerikasining jahon xo‘jaligidagi o‘rni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Ichki tafovutlari. Lotin Amerikasining subregionlari.

### **Karib havzasi orol mamlakatlari.**

Karib havzasi orollari - Vest-Indiya mintaqasi. Orollar guruhlari va mintaqaning siyosiy xaritasi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi tarkibining o‘ziga xos xususiyatlari. Jahon xo‘jaligidagi o‘rni va ixtisoslashuvi.

### **Insoniyatning global muammolar.**

Global muammolar, ularning mazmuni va turlari. Global muammolarning o‘zaro aloqadorligi. Tinchlik va quolsizlanish, yangi jahon urushining oldini olish muammosi. Eng sust rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy qoloqligi va qashshoqlik muammosi. Oziq-ovqat muammosi, uni yechishning ekstensiv va

intensiv yo‘llari. Energetika va xom ashyo muammolari: sabablari va hal qilish yo‘llari.

## **8-BOB: Afrika subregionlari. Okeaniya davlatlari (2 soat)**

### **Afrika subregionlari.**

Afrika mamlakatlari orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, etnik va diniy tafovutlar, ularning materik mamlakatlarini 5ta subregionga bo‘linishda hisobga olinganligi. Shimoliy Afrika davlatlari. G‘arbiy Afrika davlatlari. Sharqiy Afrika davlatlari. Markaziy Afrika davlatlari. Janubiy Afrika davlatlari. Afrika mamlakatlarining dolzARB ijtimoiy-iqtisodiy hamda geoekologik muammolari. Geosiyosiy mojarolar.

### **Okeaniya davlatlari**

Okeaniyaning geografik o‘rni, tabiiy geografik sharoiti va uning mintaqasi aholisi va xo‘jaligiga ta’siri. Aholisi, irqiy, etnik va til tarkibi. Mintaqalardan jahon xo‘jaligidagi o‘rni, xalqaro ixtisoslashuvi.

## **9-BOB: Osiyo subregionalari (4 soat)**

### **Janubi-g‘arbiy Osiyo va Janubiy Osiyo subregionlari.**

Osiyo subregionlari va ulami ajratish mezonlari. Janubiy-G‘arbiy Osiyo subregionining eng muhim xususiyatlari va ularning tarixiy-geografik ildizlari. Kavkaz mamlakatlari: Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon. Janubiy Osiyo subregionining eng muhim xususiyatlari va ularning tarixiy-geografik ildizlari.

### **Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo subregionlari.**

Sharqiy Osiyo subregionining eng muhim xususiyatlari va ularning tarixiy-geografik ildizlari. O‘zbekistonning Xitoy va Koreya Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorligi. Janubi-Sharqiy Osiyo subregionining eng muhim xususiyatlari va ularning tarixiy-geografik ildizlari. ASEAN tashkiloti.

### **Markaziy Osiyo mamlakatlari.**

O‘rta Osiyo va Markaziy Osiyo tushunchalari, ularning farqi. Markaziy Osiyo siyosiy xaritasi va uning shakllanishi. Mintaqaning tabiiy sharoiti va resurslari, aholisining joylashuvi va tarkibi, demografik jarayonlar. Markaziy Osiyo davlatlari xo‘jaligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umumiy va xususiy jihatlari.

### **Markaziy Osiyo mamlakatlarining geoekologik muammolari.**

Subregiondagi geoijtisodiy, geosiyosiy va geoekologik muammolar, ularning umumiyligi, transchegaraviyligi. Davlatlararo integratsiya omillari.

## **10-BOB: O‘zbekiston Respublikasi (2 soat)**

### **O‘zbekistonning geosiyosiy o‘rni va munosabatlari.**

O‘zbekiston geografik o‘rnining o‘ziga xos xususiyatlari. Respublikamiz geografik o‘rnining geosiyosiy jihatlari: imkoniyatlar va tahdidlar. O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari. Jahondagi geosiyosiy vaziyatning

O‘zbekistonga ta’siri, mamlakatimiz tashqi siyosatining geografik jihatlari. O‘zbekistonning strategik hamkorlari. Respublikamiz ShHT, MDH, OQXF (Orolni qutqarish Xalqaro fondi) kabi tashkilotlarda ishtirok etishi va buning ahamiyati.

### **O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va rivojlanishi.**

O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va islohotlar jarayonlarining bosqichma-bosqichligi. Milliy iqtisodiyotimizning istiqboli va kelajakda rivojlantirish masalalari.

Respublikamiz hududidagi geoekologik muammolar va ular yechimining geografik asoslari.

### **Geografiya fanidan mavzuiy rejalashtirish**

№	Bo‘lim va boblar nomi	Jami soatlar taqsimoti		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1	1-BOB: Kirish	2	2	-
2	2-BOB: Yer tabiatи	8	7	1
3	3-BOB: Jamiyat va tabiat	2	2	-
4	4-BOB: Amaliy geografik tadqiqotlar	4	4	-
5	5-BOB: Dunyo aholisi	6	5	1
6	6-BOB: Dunyoning geosiyosiy	2	2	-
7	7-BOB: Yevropa va Amerika	4	4	-
8	8-BOB: Afrika subregionlari. Okeaniya	2	2	-
9	9-BOB: Osiyo subregionlari	4	4	-
10	10-BOB: O‘zbekiston Respublikasi	2	2	-
11	<b>Jami:</b>	<b>36</b>	<b>34</b>	<b>2</b>

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 29-avgustdagи “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 29-avgustdagи “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgustdagи “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 390 -sonli qarori.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi “2004-2009 yillarda mакtab ta’limini rivojlantirish umummilliyl dasturi to‘g‘risida” gi Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirli va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010-yil 1-iyuldagи “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitiladigan umumta’lim fanlari hamda oliv ta’limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uziyiligi va uzlusizligini ta’minalash to‘g‘risida”gi 6/2/4/1-sonli qo‘shma hay’at majlisi qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PP-1875-sonli qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187-son qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagи “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” gi 140-sonli qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2015 yil 28 iyundagi “Umumta’lim fanlarning o‘qitilishidagi uziyilik va uzlusizlikni ta’minalash nuqtai nazaridan takomillashtirilgan Tabiiyot va geografiya fani yo‘nalishi bo‘yicha konsepsiysi” 4-sonli hay’at qarori.
11. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk keljak sari. -T.;1998.
12. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T. “O‘zbekiston”;1999.
13. Федеральный государственный образовательный стандарт основного общего образования. Утвержденный приказом Министерства образования и науки Российской Федерации от 17 декабря 2010 г. № 1897.
14. Physical Education Model Content Standards for California Public Schools. Kindergarten Through Grade Twelve. Adopted by the California State Board of Education January 2005.
15. Об утверждении государственных общеобязательных стандартов образования соответствующих уровней образования. Постановление Правительства Республики Казахстан от 23 августа 2012 года № 1080. Материалы интернета.
16. Приказ Министерства образования и науки Российской

Федерации (Министерства образования и науки России) от 17 мая 2012 г. N 413 г. Москва."Об утверждении федерального государственного образовательного стандарта среднего (полного) общего образования".

17. 5-sinf Geografiya "Tabiiy geografiya boshlang'ich kurs" P.G'ulomov va boshqalar. "O'qituvchi" 2015y.
18. 6- sınıf Geografiya (Materiklar va okeanlar tabiiy geografiysi) A.Soatov. A. Abulqosimov M. Mirakmalov "O'qituvchi" 2017y.
19. 7- sınıf Geografiya (O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiysi) P. G'ulomov va boshqalar. "O'qituvchi" 2017y.
20. 8-sinf Geografiya (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiysi) P.Musaev. J.Musaev "Sharq nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi" Toshkent - 2014 y.
21. 9- sınıf Geografiya (Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiysi) A.Qayumov I. Safarov M.Tillaboeva. "O'zbekiston" Toshkent - 2014 y.
22. 10-sinf Geografiya Sh. Sharipov, V. Fedorko, N.Safarova, V. Rafiqov. "O'qituvchi" 2017y.
23. I. Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T.: 2002-йил.
24. I.A.Karimov, O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari-T.: "O'zbekiston" 1997.
25. Герасимова Т.П. и. др "Начальный курс географии". Москва "Дрофа" 2005 г.
26. Mirzaliyev T. va boshqalar. "Kartalar va ulardan mакtabda geografiya darslarida foydalanish". T.; "O'qituvchi", 1977.
27. Topografiya asoslari va kartografiya. M.Asomov, T. Mirzaliyev – Toshkent. 1987.
28. Geodeziya X., T Muborakov., "Cho'lpon", 2007-y.
29. Н.А.Максимов "Физическая география" 5 класс 1973 г.
30. N.A.Maksimov, "Tabiiy geografiya" "O'qituvchi" 1987-y.
31. P.N.G'ulomov, "Jug'rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug'ati" T., "O'qituvchi" 1994.
32. R. Qurban niyozov "Qiziqarli geografiya" Toshkent, "O'qituvchi" 1998
33. Т. Герасимова и др. ГЕОГРАФИЯ. Физическая география начальный курс-М.: "Просвещение", 1992 г.,
34. M. Koriyev «O'rta Osiyoning tabiiy geografiysi». «O'qituvchi» T., 1968.
35. K.Gadoyev, S.Berdiyeva. "Jahongashta sayyoh olimlar" T- "O'zbekiston" - 2012
36. K.Gadoyev, S.Berdiyeva. Sayyoramiz mo'jizalari T- "O'zbekiston"-2012
37. F.Vlasova, Materiklar va okeyyanlar tabiiy geografiysi. T. "O'qituvchi" 1989-y.
38. N.A.Maksimov. Tabiiy geografiyadan metodik qo'llanma T. "O'qituvchi" 1991-y.
39. 5-sinf Geografiya "Tabiiy geografiya boshlang'ich kurs" o'qituvchilar uchun P.G'ulomov va boshqalar. "Tafakkur" Nashriyoti.T. 2016y.
- 40.6-sinf Geografiya (Materiklar va okeanlar tabiiy geografiysi) A.Soatov. A. Abulqosimov M. Mirakmalov.E. Nazaraliyeva - "Tafakkur" Nashriyoti.T. 2017y.
41. M. Mirakmalov, M. Avezov, E. Nazaraliyeva- "Tabiiy geografiyadan amaliy

mashg‘ulotlar” T. “ Fantexnologiya” 2017 у.

42. M. Avezov -“Geografiyadan savol-javoblar to‘plami” T. “Tsentr innovatsionix texnologiy” 2017 у

43. 5-9-sinf “Geografiya o‘quv atlas”lari Toshkent- Kartografiya IICHDK 2018 у

44. ЧУДО-КНИГА Универсальная энциклопедия для детей. ТОМ I Москва 1997

45. ЧУДО-КНИГА Универсальная энциклопедия для детей. ТОМ II Москва 1997

46. ЧУДО-КНИГА Универсальная энциклопедия для детей. ТОМ III Москва 1997

47. P.G’ulomov Tabiat va inson T.: 2000

48. Aniq va tabiiy fanlar metodikasi. Ilmiy-pedagogik, metodik- jurnal Toshkent. 2017, 2018.

49. Атлас: География материков и океанов для 7 класса. Москва, 1991.

50. Физическая география. Справочные материалы. М., “Просвещение”, 1994 г.

51. X. Xasanov «O’rta Osiyolik geograf va sayyohlar». «O’zbekiston» T., 1981.